



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Alibaeva Nilufar Maxamatali kizi

*Qo'qon Davlat Pedagogika Insituti Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori,
o'qituvchi*

**O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA ONOMATOPIYALARNING O'ZARO
TARJIMASI**

Annotatsiya

Ushbu maqolada “tillarni chog'ishtirma o'rganish tarjima, mashina tarjimasi, lingvofalsafiy, lingvodidaktik va nazariy masalalarni o'rganishni maqsad qilib oladi Shuningdek, lingvistik tipologiyaning eng muhim masalasi – tillar orasidagi farqlanish ko'rsatkichlarini aniqlash va farqlanishni universal chegaralarini belgilashligi xaqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: taqlid va tasviriy so'zlar, taqlidiy ifoda, polisemaniya, tasviriy ifoda.

Tasviriy va taqlid so'zlarni bir tildan ikkinchi tilga tarjimada chalkashlik va murakkabliklar tug'ilishi tabiiy. Bunda bir tildagi tasvir boshqa tilda umuman o'zgacha anglashilishini inobatga olish zarur. Birgina onomatop birliklarning fonetik o'ziga xosliklari boshqa tildagi aynan o'sha tovushga taqlidni ifodalovchi birlikni topishda qiyinchilik tug'diradi, sababi tovushga taqlidlar bevosita til egalarining artikulyatsion imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda shakllanadi. Ushbu taqlidlarda borliqdagi tovushlarning aynan bir yoki bir necha qirrasigagina urg'u berilishini kuzatamiz. Boshqa til egalari esa aynan o'sha tovushning o'zini boshqacha qabul qilishi va butunlay ayriqcha bir jihatiga urg'u bergan holda ifodalashlari mumkin. Albatta, tarjimonning mahorati, aslyat matnning nolisoniy omillarini to'g'ri anglash, har bir til birligining poetik xususiyat[1] va imkoniyatlarini teran his etish tarjima jarayonida katta ahamiyat kasb etadi. Kuzatishlardan ma'lum bo'ladiki, ba'zan tasviriy ifoda qo'llangan jumalarda aynan shu element tarjimada tashlab ketiladi. Tasviriy elementlarni tashlab ketgan holda tarjima qilish, albatta, mantning badiiy bo'yoqdorligiga sezilarli darajada putur yetkazadi. Quyida bir jumlaning tasviriy

ifodasiz tarjimasini ko'rib o'tamiz: Masalan: Akram o'rnidan dik etib turdi (S.Anorboev, "Oqsoy shalolalari"). Ingliz tilida berilishi: Akram stood up from his place

Ayni shunday uslubiy xatoliklar o'zbek tilidan ingliz tiliga qilingan ko'plab badiiy tarjimalarda uchray turadi. Tabiiyki, bunga tarjimonning ayni asliyatga teng bo'lgan tasviriy ifoda topa olmaganligi sabab bo'lishi mumkin. Biroq aniq teng keladigan tasviriy ifoda ingliz tilida mavjud bo'lmasa, uni qoldirib ketmasdan, boshqa biror sifat yoki ravishdan foydalanish mumkin bo'ladi. Tillararo tipologik farqlar bunday yo'l tutishga imkon beradi. Masalan: Akram stood up immediately from his place. Ikkinchi tarjima namunasida tasviriy ifoda ravish sifatida tarjima qilingan. Albatta, bu ham aniq tasviriy ifoda emas. Shunga qaramay, qo'llangan birlik asliyatdagi tasviriy ifodaning ma'nosini, ya'ni tezda sapchib turish ma'nosini to'laqonli ifodalay oladi.

Tasviriy va taqlidiy ifodalar o'zbek folklorida qo'llanishiga ham duch kelamiz. Nasriy asarlardan farqli o'laroq, folklor namunalarida bu kabi birliklar keng qo'llanadi. Ularning badiiy bo'yoqdorligi ham, halqona topqirlik ham ayni shu tasviriy ifodalar qo'llanishida yaqqol ko'zga tashlanadi. Shu sababdan ularning to'g'ri, haqqoniy, asliyatga yaqin tarjimasini ingliz tilida ham ushbu halq og'zaki ijodiyotiga xos tasvirning to'laqonli aks ettirilishini ta'minlaydi. Masalan:

Dubilg'a boshida do'ng'illab,

Qirq qubba qalqon qarqillab,

Tilla poyanak urilgan,

Uzangilar sharqillab,

Bedov otlar dirkillab. ("Alpomish").

Ingliz tilida berilishi:

Putting helmet on heads hooding,

Putting an armour on arms,

The golden circles attached

Bridles brattling

Neighing horses hovering

Matnda to'rtta tasviriy va taqlidiy ifoda berilgan va ularning barchasi yondosh so'zlarga nisbatan alliterativ tasviriy va taqlidiy vosita sifatida qo'llangan. Ayni paytda, ushbu birliklar qofiya va ohangi jihatidan mutanosib. Shu sababdan ushbu birliklar tarjimasida ayni shu qonuniyatni, ya'ni alliteratsiya va hamohanglikni saqlab qolishga urinish lozim. Agar gap nasriy asar tarjimasini haqida borayotganda uning tarjimasini ayni ma'noni ifodalovchi leksemalar yordamida tarjima qilinishi mumkin edi, ammo nazmiy asarlarda tasviriy ifodaning yoki taqlidiy ifodaning o'rnida shu ma'noni ifodalovchi ravish yoki sifat so'zlarni qo'llash bilan asliyatdagi badiiy bo'yoqdorlikni berib bo'lmaydi.

**Adabiyotlar**

1. Чиронов С.В. Ономапозэтические слова в современном японском языке: Автореф. дисс. ...канд. филол.наук. – М., 2004. – С.8.Қўнгулов Р. Ўзбек тилида тасвирий сўзлар.—Т: Фан, 1966
2. International Journal of Basic Sciences and Applied Research Vol, 3 (SP), 219-225, 2014//Available online at<http://www.isicenter.org>.-P.221
3. Mahmudov N. Til tilsimi tadqiqi. –Toshkent: Mumtoz so'z, 2017.